International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

Bir Hikoyat Ildizi Haqida Mulohazalar

Shaxnoza Xudayberdiyeva
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi
Email: xudayberdiyevashaxnoza5@gmail.com

Abstract

Maqolada sharq adabiyotida, xususan fors-tojik ijodkorlari tomonidan yaratilgan katta va kichik hikoyatlarda o‘zining ibratli, boshqalar uchun hayratli bo‘lgan hayot yo‘li bilan qahramonlik darajasiga ko‘tarilgan tarixiy obrazlardan biri Luqmoni Hakim obrazining kelib chiqishi va badiiy adabiyotdagi o‘rni haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

Keywords: Qur’oni karim, Luqmon, Abu Lays Samarqandiy, “Bo‘ston ul-orifiyn”, Sa’diy, “Guliston”, “Bo’ston”

Alisher Navoiy o‘z asarlarida turli mavzularga bag‘ishlangan xilma-xil hikoyatlardan mohirlik bilan foydalangani. Bu esa nafaqat hikoyatning abadiyligiga, qolaversa asar badiiyatini oshishiga ham xizmat qilgan.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlardan birining bosh qahramoni Luqmoni Hakimdir. Luqmon nomi ilk bor Qur’oni Karimning 31-surasida kelgan, unda 13- oyatdan 19-oyatgacha Luqmonning o‘g‘illariga nasihati keltirilgan. Jumladan, 18-oyatda shunday deyiladi:

”لَا تُصَعِّرْ خَدَّكَ لِلنَّاسِ وَلَا تَمْشِ فِي الْأَرْضِ مَرَحًا إِنَّ اللَّهَ لَا يُحِبُّ كُلَّ مُخْتَالٍ فَخُورَ“

“Odamlardan yuzingni cho‘zma (takbir qilma) va yerda kibr bilan yurma. Albatta, Alloh mag‘rur va maqtanchoqni yoqtirmaydi”1.

Luqmon obrazi keyinchalik sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan durdona asarlarda an’anaviy obrazlardan biriga aylandi va yuqorida kelganidek pand-u nasihat qiluvchi donishmand obrazi sifatida ommalashdi. Luqmon badiiy obraz sifatida ham qur’oniy sifatlarini saqlab qoldi.

Milodiy 944-1003-yillarda Samarqandda yashab ijod qilgan zamonasining yetuk fiqh va tafsir olmi Abu Lays Samarqandiy o‘zining “Bo‘ston ul-orifiyn” asarida quyidagilarni keltiradi: “Luqmoni Hakim o‘g‘liga: "Ey o‘g‘lim, yaxshi hojatni talab qilish – ilmning yarmi, insonlarga

1Qur’oni karim (ma'nolarining tarjimasi). Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: ww.ziyouz.com kutubxonasi. B. 275

do‘stlashish – aqlning yarmi, yashashda tadbir qilish – kasbning yarmi", - deganlar”2.

Nizomulmulk asarlarida ham Luqmon donishmand qiyofasida namoyon bo’ladi: “Luqmoni Hakim aytadiki, odam uchun dunyoda bilimdan yaxshiroq yor yo‘q va bilim xazinadan ham yaxshiroqdir. Chunki sen xazinani ehtiyot qilishing kerak, bilim esa seni qutqaradi va muhofaza qiladi”3.

Luqmoni Hakimning kelib chiqishi va kasbi-korlari haqida aniq bir ma’lumot hech bir manbada qayd etilmagan bo’lsa-da, mavjud ma’lumotlarga asoslanib uning pand-u nasihat qiluvchi donishmand siymosi Qur’oni karimdagi ma’lumotlar asosida yaratilgan va ommalashgan deya olamiz.

Luqmonning shaxsi, faoliyati haqida aniq bir ma’lumot keltirilmasa-da, ijodkorlar o‘z asarlarida ushbu obraz orqali pand-u nasihat beruvchi, donishmand, aqlli va dono mo‘ysafid obrazini o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirishadi. Yaxshi ma’lumki, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan asarlarning katta qismi didaktik ruhda bo‘lib, Luqmon kabi obrazlar asarlarning badiiy g‘oyasini yoritishda muhim ro‘l o‘ynagan va asarlarning asrlar osha qiymatini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu kabi tasvirlar Luqmon obraziga xos an’anaviy fazilatlar bo‘lib, uning donoligini Sa’diyning “Guliston” asaridagi bir necha bobda uchratish mumkin. “Luqmoni hakimdan: “Odobni kimdan o‘rganding?” deb so‘radilar. Luqmon javob berdi: “Odobni beodoblardan o‘rgandim, ularning harakatlaridagi menga maqbul bo‘lmagan narsalardan o‘zimni saqladim!”4 “Bo’ston”da ham shunga yaqin talqinni uchratish mumkin:

“Kim o‘zi kattadan ko‘rmasa jabr,

kichiklar holiga achinmas axir.

Dag‘al so‘z eshitib kelsang hakimdan,

tobe’larni ezma qo‘pollik bilan”5.

Shaxsi bilan bog‘liq aniq bir manba bo‘lmasa-da, mumtoz adabiyot namunalarida berilgan hikoyatlarda Luqmon hakim shaxsi, ko‘rinishi va faoliyatiga doir ba’zi ma’lumotlarni uchratish mumkin:

Eshitdimki Luqmon qora tan ekan,

Na tanparvar erkan, na nozuk badan6.

Luqmoni hakimning ko‘rinish haqidagi ushbu ma’lumot Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham uchraydi. Navoiy Luqmon bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar, ixtiloflarni quyidagi ruboiyga jamlagan:

Luqmonniki ba'zi dedilar payg‘ambar,

Ba'zi dedilar hakimi pokiza siyar.

Uch ming yashabon bu dayrni qildi maqar,

Ming muncha ham o‘lsa, qilg‘uluqdur bu safar”7.

Luqmon hakim shaxsi bilan bog‘liq turli rivoyatlar mavjud, u zot qora rangli, xunuk, past bo’yli, ammo nihoyatda dono qul bo’lgani, qullikdan esa o‘zining donoligi bilan ozod bo‘lgani aytiladi, shu mavzuga oid rivoyatlar keltiriladi.

“Saddi Iskandariy”da kelgan hikoyatda ham Luqmon o‘tkinchi dunyoga muhabbat qo‘ymagan

2 Абу Лайс Самарқандий. Бўсто ул-орифийн. –Б. 50.
3Низомулмулк. Сиёсатнома. –Тошкент: янги аср авлоди, 2008. –Б.63..
4Шерозий С. Гулистон. –Тошкент: Ўзбикистон, 1976. – Б.76.
5 Шерозий С. Бўстон. –Тошкент: Ўзбикистон, 1976 – Б. 51-52.
6 Шерозий С. Бўстон. –Тошкент: Ўзбикистон, 1976 – Б. 51.
7Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. –Тошкент: Ғофур Ғулом, 2011. – Б. 583-584.

donishmand timsoli sifatida tasvirlangan. Hikoyada Luqmoning dunyoga aloqador barcha narsalardan voz kechib, xazina kabi bir vayronaga bekingani va falak ajdahosi ming yildan so‘ng undan bu vayronani ham tortib olgani hikoya qilinadi. Luqmon – olam, yashash mohiyatini anglagan orif obraz. Hayotning issiq-sovug‘ini totgan pir timsoli. Bilim va donishi yer yuziga nur sochgan zot. Unda ilmlar ganjinasi mavjud. Ganjning vayronada pinhonligi ajablanarli bo‘lmaganidek, Luqmonning buzuq kulbada yashashi ham hayratlanarli emas. Luqmon jahonning rohat-farog‘atiga g‘arq holda yashamasligiga (holbuki, unda bunday imkoniyat bor edi) ikkita sabab ko‘rsatadi:

1) uzoq zamondan beri qorong‘i vayronada kun o‘tkazishimning sababi boyqush singari kechalari ham har narsani ko‘rishga ko‘zni o‘rgatish, bu orqali turli zarar-u ofatlarni daf etishni o‘yladim;

2) mol-dunyoga hech qanday rag‘batim bo‘lmaganining boisi shuki, u ham meni g‘am-kulfatga giriftor qilmasin, dedim.

Luqmonning asl maqsadi zarar-u ofatlarni daf etish, ya’ni ofiyat. Pastkash falakning odati shundayki, vidolashuv chog‘ida bergan barcha narsasini qaytarib oladi. Tuhfa qilingan narsa odamga quvonch bag‘ishlaganidek, tortib olingan narsa mahzunlik yetkazadi. Oqil mol-dunyo sababli mashaqqat yetishini keyinroq anglaydi va judolikni sabr bilan yengadi. Orif esa dunyo *tuhfa*sini olmay qo‘ya qoladi. Bu bilan u o‘tkinchi, bir lahzalik shodlikdan ham, uning ortidan yuzlanuvchi hasratdan ham xalos bo‘ladi. Axir, dunyo ketar chog‘da buzuq vayronani ham tortib oladi:

Jahondin necha el haroson erur,

Aning ranjidin maxlas oson erur.

Navoiyning Luqmon obraziga xos bunday talqinlari, shubhasiz, biz yuqorida qayd etgan manbalardan o’sib chiqqan, shular asosida shakllangan. Navoiy talqinlarida ham Luqmon obraziga xos eng asosiy sifat – donishmandlik saqlanib qolgan.

Xullas, Navoiy o‘z hikoyatlarini yaratishda ba’zan real tarixiy voqea yoxud shaxslarga murojaat qiladi, ba’zan adabiy manbalarga tayanadi, ba’zida esa folklor namunalaridan istifoda etadi. U har qanday manbadan foydalanmasin, ularni o’z ijodiy konsepsiyasiga bo’ysundiradi, badiiy qayta ishlaydi. Barcha buyuk ijodkorlarda bo’lganidek ijodiy originallikka intiladi, yangi hikoyatlar yaratishni maqsad qiladi. Eng muhimi mazkur hikoyatlarni yaratishda katta badiiy mahorat namoyish etadi, tarixiy haqiqat va badiiy to’qima me’yoriga qat’iy amal qiladi. Hikoyatlar borasida xamsanavis salaflarini takrorlamaydi.

Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Qur’oni karim (ma'nolarining tarjimasi). Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: www.ziyouz.com kutubxonasi. B. 275
2. Шерозий С. Гулистон. –Тошкент. Ўзбикистон, 1976. – Б.76.
3. Шерозий С. Бўстон. –Тошкент. Ўзбикистон, 1976 – Б. 51-52.
4. Абу Лайс Самарқандий. Бўсто ул-орифийн. –Б. 50.
5. Низомулмулк. Сиёсатнома. –Тошкент. янги аср авлоди, 2008. –Б.63.
6. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. –Тошкент. Ғофур Ғулом, 2011. – В. 583-584.
7. Orif Tolib “Islom nuri” gazetasining 2012-yil 22-sonida